

**SUITSIDAL XULQ SHAKLLANISHI IJTIMOY PSIXOLOGIK
MUAMMO SIFATIDA**

M.M.Aliyeva

*Buxoro shahar 2-umumta'lim maktabi psixologi,
BuxPXTI 2-bosqich magistri*

Annotatsiya: Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'smirlarda suitsidal xulq-atvorning namoyon etilishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Suitsid, ijtimoiy xavfli guruh, inqiroz, suitsidal xulq-atvor shakllari, o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining shakllari.

Dunyo ilmiy jamoatchiligi suitsid muammosini yuz yillardan ortiq vaqtdan buyon jiddiy ilmiy nazorat ostiga olgan bo'lsa-da (Emil Dyurkgeym, Zigmund Freyd, Alfred Adler, Karl Yung, Norman Feyberou, Karen Xorni, Karl Minninger, A.L.Chijevskiy, A.G.Ambrumova, V.A.Tixonenko va boshq.), O'zbekistonda suitsid muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida boshlandi. O'sha vaqtlarda (1989-yil) O'zbekiston SSR KP MQ tashabbusi bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining "Umumiy psixologiya" kafedrasida zaminida O'zbekiston Respublikasida ayollarning o'zini o'zi yoqishi (suitsid)ning ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot guruhi tuzildi. Mazkur guruh a'zolari psixologiya fanlari doktorlari, professorlar M.G.Davletshin va G'.B.Shoumarovlar rahbarligida "O'zbekiston SSRda o'zbek ayollari orasida o'zini o'zi yoqishning ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganish" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu guruh 1991-yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

1994-yildan guruh faoliyati qayta tiklandi. 1994-yil oktabridan 1996-yil mayigacha guruh avvalgi tarkib amalga oshirgan ishni davom ettirdi. Bu davrda guruh vazifalari qayta ko'rib chiqilib, uning nomiga "Shaxs inqiroz holatining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganish" deb o'zgartirish kiritildi. Guruh a'zolari tomonidan respublikamizning barcha viloyatlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Turli muassasalar, jamg'armalar, jamiyatlar bilan aloqalar o'rnatildi. Jurnallarda, gazetalarda maxsus ruknlar ochilib, ularda maqolalar chop etish yo'lga qo'yildi. Aholi o'rtasida shaxs inqirozi holatining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etishda psixologik bilimlarni targ'ib qilish ishlari amalga oshirildi. Maxsus qo'llanmalar, risolalar, maqolalar, tavsiyanomalar ishlab chiqildi va ular viloyatlar, tumanlar hokimliklarining xotin-qizlar bilan ishlash bo'limlari, mahalla qo'mitalari xodimlari e'tiboriga havola etildi.

O‘zbekistonda suitsid muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilk bor ilmiy tadqiq etishni boshlagan mutaxassislar guruhi a‘zolari psixologiya fanlari doktorlari, professorlar M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, psixologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar S.A.Axundjanova, N.A.Sog‘inov, Z.R.Qodirova, E.SH.Usmanov, B.M.Umarov, F.S.Ismagilova, Z.F.Kamaletdinova, tibbiyot fanlari nomzodi N.M.Xodjayeva va psixolog N.Z.Ismoilovalardan iborat edi. Ayni vaqtda b mutaxassislarning aksariyati fan doktorlari bo‘lib, nafaqat respublikamiz, balki uning hududlaridan tashqarida ham ilmiy faoliyatlarini davom ettirmoqdalar.

Mazkur guruh a‘zolari faoliyati mahsuli o‘laroq, suitsid muammosini ilmiy tadqiq etish asnosida o‘rganilayotgan muammoning nazariy asoslari ishlab chiqildi, turli ilmiy konsepsiyalar yaratildi. Suitsidning yuzaga kelishiga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillar, suitsid sabablari, ularning turlari, vositalari, ko‘rinishlari aniqlandi, suitsidni tadqiq etish metodikalari yaratildi, ularning oldini olish va bartaraf etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu borada alohida e‘tirofqa molik tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mazkur muammo batamom hal etilgani yo‘q. Hamon dunyo miqyosida, o‘z joniga qasd qilib, hayotdan ko‘z yumganlar miqdori avtomobil halokati tufayli hayotdan ko‘z yumganlardan ko‘pligicha qolmoqda. Albatta, bu ko‘rsatkich respublikamizda g‘arb, Yevropa davlatlaridagiga qaraganda sezilarli darajada kam bo‘lsa-da, lekin aholimizning etnik, hududiy xususiyatlariga bog‘liq holda bu hodisaning salbiy asoratlari og‘irroq kechadi.

Masalan, Emil Dyurkgeym “O‘z joniga qasd qilish” (1897) nomli asarida suitsidni shaxsiy fenomen sifatida tavsiflab, muayyan individning uni o‘rab turgan olam bilan o‘zaro aloqasi deb hisoblaydi. U suitsid turlarini (egoistik, anomistik, altruistik) ta‘riflar ekan, ularda individualizmning nisbatan ko‘proq kuzatilishini ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, A.Adler, K.Yungning ta‘kidlashlaricha, Yevropa xalqlarida individualizm xususiyatlari kuchliroq kuzatiladi. Sharq xalqlarida, jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarida, aksincha, jamoaviylik kuchliroq namoyon bo‘ladi. XIX asrning atoqli olimlaridan biri Herman Vamberi Yevropa va Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, ilm-fan hamda madaniyatini o‘rganib, ularni taqqoslar ekan, Yevropa madaniyatida asosiy e‘tibor, birinchi navbatda, shaxsga, uning ijtimoiy va madaniy jihatlariga qaratiladi, deb ta‘kidlaydi. Sharq madaniyatida esa asosiy qadriyat sifatida muayyan odamda, individda namoyon bo‘luvchi xususiyatlar emas, balki, ijtimoiy tuzilma, odamning mavjud (real) voqelikka moslashishiga yordam beruvchi jamoa kulti e‘tiborga olinadi. Shuning uchun Sharqda, O‘rta Osiyoda jamoatchilik, mahalla-ko‘y munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Vamberi o‘z ishlarida Sharqda, ayniqsa, O‘rta Osiyoda dinning ahamiyati haqida yozar ekan, bu yerda din odamning yaratganga munosabatini aniqlash vazifasi bilangina cheklanmaydi, balki qandaydir ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lib, xalq jamoatchiligining deyarli barcha jabhalariga kirib boradi, siyosatga ham, ijtimoiy munosabatlarga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, aholi

tafakkuri qatlamlarida iz qoldiradi va mahalliy aholining butun ruhiyatida aks etadi, deya qayd qiladi. Albatta, bu borada dinshunos, tarixshunos olimlarimiz o'z fikrlarini batafsilroq bildirarlar, lekin shuni aytish joizki, bir kishining o'z joniga qasd qilishi azaldan uning qarindosh–urug'lari, yaqinlari ruhiyati (psixikasi)da chuqur iz (asorat) qoldirgan va hozir ham bu hodisaga jamoatchilik juda keskin munosabat bildiradi. Shu xususiyatga ko'ra ham suitsidning oqibatlari bizda Yevropa xalqlaridagiga qaraganda chuqurligi bilan farqlanib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 229-son qarori bugungi kunlarimizda ham mazkur muammoga berilayotgan e'tiborning naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu singari hujjatlarning maqsadga muvofiq ijrosi muammoning maqsadga muvofiq hal etilishida katta istiqbollarni belgilab beradi.

Suitsid – lotinchadan olingan bo'lib (lot. sui caedere - "o'zni o'ldirish"), odamning ongli ravishda o'zini hayotdan mahrum qilishini anglatadi. Suitsidal xulq-atvor suitsiddan farqli o'laroq, kengroq tushuncha bo'lib, o'zida suitsidal xatti-harakat, o'z joniga qasd qilishga urinish hodisalarini qamrab oladi (Kondrashenko, 1999 y.). O'z joniga qasd qilishga barcha suitsidal xatti-harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qiluvchiga bog'liq bo'lmagan holda o'lim ro'y bermaydigan holatlar ham kiradi (mas. arqonning uzilib ketishi, o'z vaqtida ko'rsatilgan tibbiy yordam va h.k.). Suitsidal ko'rinishlar sirasiga unga muvofiq keluvchi fikrlar, so'zlar va o'z joniga qasd qilishga qaratilgan xatti-harakatlar bilan birga kechmaydigan alomatlar ham kiradi. Boshqa tasniflarga ko'ra, o'z joniga suiqaedlar haqiqiy suitsid va parasuitsidga (o'limga olib kelmaydigan o'ziga-o'zi ziyon yetkazish harakatlariga (Kondrashenko, 1999 y.) ajratiladi. Suitsidlar shartli ravishda haqiqiy va namoyishkorona-qo'rqituvchi turlarga bo'linadi. Haqiqiy suitsidal xulq-atvorda odamning o'zini o'ldirish ehtiyoji maqsadga aylanadi. Namoyishkorona qo'rqituvchi suitsidal xulq-atvor atrofdagilarga ta'sir o'tkazish, qandaydir foyda olish, boshqa odamlar hissiyotlarini boshqarish maqsadida qo'llanadi. Namoyishkorona qo'rqituvchi xulq-atvor maqsadi o'zini o'ldirish emas, balki shunday kayfiyatni ko'rsatishdir.

Suitsid fenomenini ko'pincha psixologik inqiroz haqidagi tasavvurlar bilan ham bog'laydilar. Bunda inqiroz shaxsning o'ta muhim hayotiy ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi to'siqlarga duch kelish vaziyatidan paydo bo'ladigan emotsional holat sifatida tushuniladi, ya'ni bular shunday to'siqlarki, odam uni o'zining hayotiy tajribasidagi muammolarni hal qilish usullari bilan bartaraf eta olmaydi.

Shunday qilib, psixologik inqiroz inson psixikasida tashqi sharoitlar natijasida kelib chiqadigan xavf ta'sirida paydo bo'luvchi emotsional turg'unlikning ichki buzilishi sifatida qaraladi. A.G.Ambrumovanning ta'kidlashicha, psixologik inqiroz individda frustratsiya holatini keltirib chiqaradi va frustratsiyaga nisbatan o'ziga xos

shaxsiy ta'sirini namoyon etadi (lot. frustratio — aldanish, rejalarining barbod bo'lishi; muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo'lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladi). Olimaning fikricha, "suiqasdgga moyillik kelajakni konstruktiv rejalashtirishning birdaniga tushib ketishi, ya'ni umidsizlik darajasi bilan belgilanadi".

Quyida aholining o'z joniga qasd qilish darajasi, monitoring natijalari va O'zbekiston Respublikasi aholisi o'rtasida o'z joniga qasd qilish harakatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar kiritilgan.

O'z joniga qasd qilishning tarqalish ko'rsatkichi

	Hududlar	O'z joniga qasd qilgan aholi soni					
		2020			2021		
		Jami			Jami		
		Soni	Aholi	% nisbati	Soni	Aholi	% nisbati
1	Qoraqalpog'iston	159	1898300	8,4	193	1923700	10,0
2	Andijon	109	3127700	3,5	149	3188100	4,7
3	Buxoro	130	1923900	6,8	96	1947100	4,9
4	Jizzax	119	1382100	8,6	129	1410500	9,1
5	Qashqadaryo	180	3280400	5,5	46	3335400	1,4
6	Navoiy	107	997100	10,7	66	1013600	6,5
7	Namangan	174	2810800	6,2	214	2867500	7,5
8	Samarqand	205	3877400	5,3	277	3947700	7,0
9	Surxondaryo	198	2629100	7,5	172	2680800	6,4
10	Sirdaryo	113	846300	13,4	134	860900	15,6
11	Toshkent viloyati	76	2941900	2,6	443	2975900	14,9
12	Farg'ona	227	3752000	6,1	222	3820000	5,8
13	Xorazm	142	1866500	7,6	338	1893300	17,9
14	Toshkent shahri	130	2571700	5,1	143	2694400	5,3
15	O'zbekiston Respublikasi	2069	30801785	6,7	2622	34558900	7,6

E.Shneydman suitsidlarning shart-sharoitlari va ularni amalga oshirishning turlichaligiga qaramay, barcha suitsidlarga xos bo'lgan mavjud belgilarni tavsifladi va ajratdi:¹

1. Suitsidning umumiy maqsadi – yechimni qidirish.
2. Suitsidning umumiy maqsadi – ongni to'xtatish.
3. Suitsidning umumiy turtkisi – chidab bo'lmaydigan ruhiy og'riq.
4. Suitsidda umumiy stressor – psixologik ehtiyojlarning frustratsiyaga uchrashi.

¹ Шнейдман Э. Десять общих черт самоубийств и их значение для психотерапии //Суицидология: прошлое и настоящее. Проблема самоубийства в трудах философов, социологов, психотерапевтов и художественных текстах /Сост. А.Н. Моховиков. - М.:Когито – центр, 2001.

5. Umumiy suitsidal hissiyotlar – ojizlik va umidsizlik.
6. Suitsidga umumiy ichki munosabat – ambivalentlik.
7. Suitsidda psixikaning umumiy holati – kognitiv sohaning torayishi.
8. Suitsiddagi umumiy harakat – muammodan qochish.
9. Suitsidda umumiy kommunikativ harakat – o‘z niyati haqida xabar berish.
10. Umumiy qonuniyat – hayot davomidagi xulq-atvorning suitsidal xulq-atvor umumiy uslubiga (belgilariga) muvofiq kelishi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PK-4190-son qarori.
3. Ambrumova A.G. Tixonenko V.A. Diagnostika suitsidalnogo povedeniya. – M., 1980.
4. Dobson Dj.CH. Roditelyam i molodojyonam: doktor Dobson otvechayet na Vashi voprosi. – M.: Sentr obshechelovecheskix sennostey, 1991.
5. Dyurkgeym E. Samoubiystvo. Sotsiologicheskii etyud. /Per. s fran. –M., Misl, 1994.
6. Kondrashenko V.T. Suitsidalnoye povedeniye //Psixologiya ekstre-malnix situatsiy: Xrestomatiya /Sost. Taras A.YE., Selchenok K.V. –Minsk, Xarvest, 1999.
7. Moxovikov A.N. Vvedeniye v kliniko-psixologicheskii razdel. /Suitsidologiya: proshloye i nastoyasheye. Problema samoubiystva v trudax filosofov, sotsiologov, psixoterapevtov i xudojestvennix tekstax / Sost. A.N. Moxovikov. – M., Kogito – sentr, 2001.
8. Nasriddinov Ch.R. Suitsid: muammo va yechimlar. – Toshkent, 2005.
9. Piz A., Piz B. Yazik vzaimootnosheniye mujchina↔jenshina. – M., 2005.
10. Баратов Ш.Р. Методология обучения прикладных психологов: психологические основы социального интеллекта в системе образования/ Вестник интегративной психологии. – Ярославль: 2013, – С. 48-49.
11. **Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili** EDUCATION Scientic journal Mart 2022.663 bet
12. Ashurov R. Комплексный подход к изучению ценностных установок 24 выпуск 2022г 48-50 стр.
13. **Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari** EDUCATION Scientic journal Mart 2022.663 bet
14. Xarakter aksentuatsiyasining o‘quvchilar orasidagi munosabatlarga ta’siri Eurasian Journal of Academic Research, 1(8), 14–16. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5673781>